


Jizzax viloyatida umumiy o‘rta ta’lim tizimi (2019-2020-o‘quv yili boshiga)

Umumiy o‘rta ta’lim tizimi, boshlang‘ich (I - IV sinflar), tayanch o‘rta (V-IX sinflar) hamda umumiy o‘rta ta’lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo‘lib, kunduzgi ta’lim shaklida faoliyat yuritadi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan ko‘plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar hamda keng jamoatchilik takliflarini o‘rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o‘rta ta’lim tizimi qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2018-2019-o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta ta’lim tizimi, uzluksiz ravishda 11 yillik ta’lim negizida amalga oshirilmoqda. Jizzax viloyatida 2019-2020-o‘quv yili boshiga jami umumta’lim muassasalari soni 555 tani tashkil etdi va ulardan 4 tasi xususiy mulkchilik shaklidagi umumta’lim muassasalari hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda




Umumta'lim muassasalarining turlariga ko'ra taqsimlanishi

Jizzax viloyatida umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: bular boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar hisoblanadi. 2019-2020-o'quv yili boshiga kelib umumiy umumta'lim muassasalarining 547 tasini umumiy o'rta ta'lim maktablari, 4 tasini boshlang'ich maktablar va 4 tasini boshqa muassasalar tashkil etdi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 256,4 ming, boshlang'ich muassasalarda 1,1 ming va boshqa muassasalarda 0,9 ming nafar o'quvchilar tahsil olmoqda.



Umumta'lim muassasalarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, ming kishi (2019-2020-o'quv yili boshiga)


	O'quvchilar soni jami	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf
Jizzax viloyati	257.6	24.6	24.6	25.5	26.6	26.1	23.7	22.9	21.9	21.5	19.8	20.3
Jizzax shahar	38.4	3.7	3.7	3.6	3.9	3.7	3.4	3.6	3.5	3.4	3.1	3.0
tumanlar;												
Arnasoy	7.3	0.7	0.7	0.8	0.8	0.8	0.7	0.7	0.6	0.5	0.5	0.6
Baxmal	32.1	2.9	2.7	3.0	3.2	3.4	2.8	2.9	2.8	2.9	2.6	2.8
G'allaorol	32.4	2.9	3.1	3.3	3.2	3.3	3.0	2.9	2.8	2.8	2.7	2.5
Sh.Rashidov	38.4	3.9	3.7	3.8	4.1	3.8	3.5	3.3	3.2	3.1	2.8	3.1
Do'stlik	10.8	1.0	1.1	1.2	1.2	1.1	1.0	0.9	0.9	0.9	0.7	0.8
Zomin	31.5	3.1	3.1	3.2	3.2	3.1	3.0	2.7	2.6	2.5	2.5	2.5
Zarbdor	15.3	1.6	1.6	1.6	1.6	1.6	1.5	1.3	1.3	1.2	1.0	1.1
Zafarobod	8.2	0.8	0.8	0.8	0.9	0.9	0.7	0.7	0.7	0.7	0.6	0.7
Mirzacho'l	9.5	0.9	0.9	1.0	1.0	1.0	0.9	0.9	0.8	0.8	0.7	0.7
Paxtakor	12.6	1.2	1.2	1.2	1.4	1.3	1.1	1.1	1.1	1.0	0.9	1.0
Forish	16.1	1.4	1.5	1.7	1.6	1.6	1.6	1.5	1.4	1.4	1.3	1.1
Yangiobod	5.1	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.4	0.4



2019-2020-o'quv yili boshiga, umumta'lim muassasalarining birinchi sinfiga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega hudud Jizzax shahri, Sh.Rashidov va Zomin tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Arnasoy va Yangiobod tumanlarida kuzatilgan.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi

2019-2020-o'quv yili boshiga, viloyatdagi barcha ta'lim muassasalaridan bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 76 ta (13,8 %), ikki smenada 474 ta (86,1 %), uch smenada 1 ta (0,1 %) ni tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 158,1 ming kishi, ikki smenada 99,3 ming kishi, uch smenada 0,1 ming kishi tahsil olmoqda.



	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	tumanlar:	Amasoy	Baxmal	G'allaorol	Sh.Rashidov	Do'stlik	Zomin	Zarbdor	Zafarobod	Mirzacho'l	Paxtakor	Forish	Yangiobod
Jami muassasalar, birlik	551	37		21	80	91	58	19	71	32	20	20	18	65	19
<i>ulardan mashg'ulot olib boradigan:</i>															
bir smenada	76	8		5	7	15	6	1	4	3	5	3	3	10	6
ikki smenada	474	28		16	73	76	52	18	67	29	15	17	15	55	13
uch smenada	1	1		-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi, % da


2019-2020-o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar 22,4 ming nafarni tashkil etib, ulardan 59,5 % iqishloq maktablarida, 40,5 % ishahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. Jizzax viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.

	Oliy ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da
Jizzax viloyati	89.4	10.6
Jizzax shahar	96.7	3.3
tumanlar;		
Arnasoy	81.7	18.3
Baxmal	89.1	10.9
G'allarol	89.3	10.7
Sh.Rashidov	90.8	9.2
Do'stlik	86.2	13.8
Zomin	83.6	16.4
Zarbdor	82.0	18.0
Zafarobod	90.8	9.2
Mirzacho'l	79.8	20.2
Paxtakor	94.0	6.0
Forish	91.5	8.5
Yangiobod	97.4	2.6

Umumta'lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da

2019-2020-o'quv yili boshiga, umumta'lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo'yicha taqsimlanishida eng yuqori ko'rsatkich ona tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, texnologiya, rus tili va adabiyoti fanlarida kuzatildi, o'qituvchilar sonining ushbu fanlardagi ulushi boshqa fanlar o'qituvchilariga nisbatan yuqori ulushga ega.

Ma'lumot uchun: umumta'lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo'yicha taqsimlanishida, fanlar bo'yicha ta'lim bermaydigan rahbarlar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qo'shmagan holda.



Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar sonini yoshlari bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi (2019-2020-o'quv yili boshiga)


	O'quvchilar soni jami	6-yosh	7-yosh	8-yosh	9-yosh	10-yosh	11-yosh	12-yosh	13-yosh	14-yosh	15-yosh	16-yosh va undan katta
Jizzax viloyati	257.6	1.2	24.4	24.3	25.2	26.6	26.0	23.7	22.8	22.0	21.5	19.9
Jizzax shahar	38.4	0.3	3.7	3.6	3.6	3.8	3.7	3.5	3.5	3.5	3.4	3.0
tumanlar:												
Arnasoy	7.3	0.0	0.7	0.7	0.6	0.8	0.8	0.7	0.7	0.6	0.5	0.6
Baxmal	32.1	-	2.9	2.7	3.0	3.2	3.4	2.8	2.9	2.8	2.9	2.6
G'allaorol	32.4	0.0	2.9	3.1	3.3	3.2	3.3	3.0	2.9	2.8	2.8	2.6
Sh.Rashidov	38.4	0.3	3.8	3.6	3.7	4.1	3.9	3.5	3.3	3.3	3.1	2.9
Do'stlik	10.8	0.0	1.0	1.1	1.2	1.2	1.0	1.0	0.9	0.9	0.8	0.7
Zomin	31.5	0.0	3.1	3.1	3.2	3.2	3.1	3.0	2.7	2.6	2.5	2.4
Zarbdor	15.3	0.1	1.6	1.6	1.6	1.6	1.6	1.4	1.3	1.2	1.2	1.0
Zafarobod	8.2	0.0	0.8	0.8	0.8	0.9	0.9	0.7	0.7	0.7	0.7	0.6
Mirzacho'l	9.5	0.1	0.9	0.9	1.0	1.0	1.0	0.9	0.9	0.8	0.8	0.7
Paxtakor	12.6	0.1	1.1	1.2	1.2	1.5	1.3	1.0	1.1	1.1	1.0	0.9
Forish	16.1	0.2	1.4	1.5	1.6	1.6	1.6	1.6	1.4	1.3	1.4	1.3
Yangiobod	5.1	0.0	0.4	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.4

2019-2020-o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 6 yoshli o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri va Sh.Rashidov tumanida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich G'allaorol va Zomin tumanlarida to'g'ri kelgan.




Umumta'lim muassasalarida 11 sinfni bitirgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi (2019-2020-o'quv yili boshiga)

2019-2020-o'quv yili boshiga Jizzax viloyatida umumta'lim muassasalarining 11-sinfni tamomlaganlar soni 12,3 ming nafarni tashkil etgan. Viloyatimiz bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Baxmal (2,3 ming nafar) va G'allaorol hamda Sh.Rashidov (1,5 ming nafar) tumanlariga to'g'ri keladi, Zafarobod (0,3 ming nafar) va Arnasoy (0,4 ming nafar) tumanlarida eng kam ko'rsatkich qayd etilgan.



Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da (2019-2020-o'quv yili boshiga)



2019-2020-o'quv yili boshiga, Jizzax viloyati bo'yicha jami umumta'lim muassasalarida 257,6 ming nafar o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 133,0 ming nafari (51,7 %) o'g'il bolalar, 124,6 ming nafari (48,3 %) qiz bolalarni tashkil etadi.

Umumta'lim muassasalarida xorijiy tillar

O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlarda bilan har tomonlama manfaatli o'zaro hamkorligining yangi bosqichga ko'tarilishi jarayonida istiqbolli yoshlarni tayyorlash, yosh avlodga xorijiy tillarni, jumladan nemis va fransuz tillarini chuqur o'rganishlari uchun shartsharoitlar yaratish va ularning intellektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda yurtimizning nufuzini yanada yuksaltirishga qodir bo'lgan avlodni tarbiyalash asosiy maqsadimizdir. 2019-2020-o'quv yili boshida viloyatimizda 551 ta umumta'lim muassasalarida o'quvchilar xorijiy tillardan saboq oladi. Shulardan, 545 tasi ingliz tili, 28 tasi nemis tili, 22 tasi fransuz tili umumta'lim muassasalarida tahsil oladi.

Xorijiy tillarini o'rganish bo'yicha umumta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2019-2020-o'quv yili boshiga)

	Umumta'lim muassasalar soni	Ulardan ta'lim olib boriladigan chet tillari bo'yicha:		
		ingliz	nemis	fransuz
Jizzax viloyati	551	545	28	22
Jizzax shahar	37	37	2	-
tumanlar:				
Armasoy	21	21	1	-
Baxmal	80	80	8	4
G'allaorol	91	90	1	6
Sh.Rashidov	58	58	2	1
Do'stlik	19	19	2	-
Zomin	71	71	2	-
Zarbdor	32	32	-	1
Zafarobod	20	19	1	-
Mirzacho'l	20	20	-	-
Paxtakor	18	18	2	4
Forish	65	61	7	6
Yangiobod	19	19	-	-


Xorijiy tillarini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarini hududlar kesimida taqsimlanishi, ming nafar (2019-2020-o‘quv yili boshiga)

2019-2020-o‘quv yili boshida mamlakatimizda 551 ta umumta’lim muassasalarida (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablaridan tashqari) 257,6 ming nafar o‘quvchi xorijiy tillaridan tahsil oladi. Shundan, 249,7 ming nafari (96,9 %) ingliz tili, 4,7 ming nafari (1,8 %) va 3,2 (1,3 %) ming nafari nemis tili xorijiy tillarni o‘rganishmoqda.

	Umumta’lim muassasalar soni	Ulardan ta’lim olib boriladigan chet tillari bo‘yicha:		
		ingliz	nemis	fransuz
Jizzax viloyati	257,6	249,7	4,7	3,2
Jizzax shaxar tumanlar:	38,4	37,9	0,4	-
Armasoy	7,3	7,2	0,1	-
Baxmal	32,1	29,6	1,7	0,8
G'allaorol	32,4	31,2	0,3	0,9
Sh.Rashidov	38,4	38,1	0,2	0,1
Do'stlik	10,8	10,4	0,4	-
Zomin	31,5	31,3	0,2	-
Zarbdor	15,3	15,1	-	0,2
Zafarobod	8,2	8,0	0,1	-
Mirzacho'l	9,5	9,5	-	-
Paxtakor	12,6	12,0	0,1	0,4
Forish	16,1	14,3	1,0	0,8
Yangiobod	5,2	5,2	-	-


Ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining hududlar kesimida taqsimlanishi, ming nafar (2019-2020-o‘quv yili boshiga)

Viloyatimizning umumta’lim muassasalarida 249,7 ming nafar o‘quvchi ingliz tilini o‘rganmoqda. Jumladan, Sh.Rashidov tumanida 38,4 ming nafarni (15,3 %) va Jizzax shaharda 37,9 ming nafarni (15,2 %) tashkil etgan bo‘lsa, bu borada eng past ko‘rsatkich Yangiobod tumanida qayd etilgan, ya’ni 5.2 ming nafar (2,1 %) o‘quvchi ingliz tilini o‘rganmoqda.




Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, birlikda

2019-2020-o'quv yili boshida umumta'lim muassasalarida jami o'qituvchilar soni 22,4 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etdi, Jizzax viloyatida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Shulardan hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Do'stlik tumanida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 15 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Baxmal, G'allaorol, Forish va Yangiobod tumanlarida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 10 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.



Jizzax viloyatida 2019-2020-o‘quv yili boshiga kompyuter sinflariga ega bo‘lgan umumta’lim muassasalar soni 541 tani tashkil etgan bo‘lib, bu jami umumta’lim muassasalarning 97,5 % ini tashkil etadi. Ular 9,4 ming dona kompyuterlar bilan ta’minlangan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming donaga, ya’ni (3,3 %) ga oshgan. 2017-2018-o‘quv yili boshida har ming o‘quvchiga 32 donadan kompyuterlar soni to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, joriy yilda 30 donadan to‘g‘ri kelgan.



Umumta'lim muassasalarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan ta'minlanganligi bo'yicha dinamikasi, birlikda (o'quv yili boshiga)

Umumta'lim muassasalarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan ta'minlanganligi bo'yicha dinamikasi, birlikda (o'quv yili boshiga)				
	2016-2017	2017-2018	2018-2019	2019-2020
Kompyuter sinflariga ega bo'lgan muassasalar soni	505	518	530	541
Umumiy muassasalar soniga nisbatan % da	93,1	95,2.	97,4	97,5
Kompyuter sinflari soni	645	627	664	683
ularda kompyuterlar soni, ming dona	7,9	8,2	9,1	9,4
"Har 1000 oquvchiga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni	38	40	37	36
"ZiyoNet"ga ulanish imkoniyati bo'lgan muassasalar soni	502	461	441	433

Ijtimoiysoha statistikasi bo`limi

71-230-83-62

72-222-81-36